

XVI YUZ YILLIKDA BUXORO VA Rossiya DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI

Rustamboyev Islomjon Doniyor o'g'li
Oriental universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi.

islomjonrustamboyev@gmail.com

Rahimjonova Nozima Abdullo qizi
Oriental universiteti Tarix fakulteti talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15622732>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida rasmiy tus ola boshlagan elchilik aloqalarining shakllanishi, rivojlanishi va mazmun-mohiyati mahalliy hamda rus manbalari asosida tahlil qilinadi. Xususan, 1558–1559 yillarda Antoniy Jenkinson boshchiligidagi ingliz elchiligidagi Buxoroga safari, 1563–1564 yillarda Buxoro va Xivadan Moskvaga yuborilgan elchilarning qabul qilinishi, 1583-yilda Buxorodan Moskvaga yuborilgan elchilik missiyasi hamda boshqa diplomatik aloqalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqolada Hofiz Tanish al-Buxoriy tomonidan yozilgan “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) kabi mahalliy tarixiy manbalar va S.V. Jukovskiy, St. Russov, N. Veselovskiy kabi rus mualliflarining tadqiqotlari asosida o'sha davrdagi elchilik missiyalari, savdo aloqalari, siyosiy manfaatlar va ularning O'rta Osiyo-Rossiya munosabatlari tarixidagi o'rni o'rganiladi. Ayniqsa, Jenkinsonning safar xotiralari va u tomonidan berilgan ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflar tanqidiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada bu davrda O'rta Osiyo xonliklarining xalqaro savdo tizimida tutgan o'rni va Rossiyaning mintaqaga bo'lgan qiziqishi doirasidagi siyosiy harakatlari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Rossiya, Antoniy Jenkinson, elchilik aloqalari, savdo munosabatlari, tarixiy manbalar, XVI yuz yillik, diplomatiya.

Аннотация. В данной статье анализируется формирование, развитие и сущность дипломатических связей, принявших официальный характер между Бухарским ханством и Россией во второй половине XVI века на основе местных и русских источников. В частности, рассматриваются такие события, как поездка английского посла Антония Дженкинсона в Бухару в 1558–1559 годах, приём послов из Бухары и Хивы в Москве в 1563–1564 годах, а также миссия бухарского посольства в Москву в 1583 году и другие дипломатические контакты. В статье исследуются дипломатические миссии, торговые отношения и политические интересы того времени на основе таких исторических источников, как «Абдуллонома» («Шарафнама-и шохий») Хафиза Таниша ал-Бухари, а также исследований русских авторов, таких как С.В. Жуковский, Ст. Руссов, Н. Веселовский. Особое внимание уделено воспоминаниям Дженкинсона о его путешествии и его социально-экономическим описаниям, которые подвергаются критическому анализу. Также в статье освещается роль среднеазиатских ханств в международной торговой системе того времени и политические действия России в регионе.

Ключевые слова: Бухарское ханство, Россия, Антоний Дженкинсон, дипломатические связи, торговые отношения, исторические источники, XVI век, дипломатия.

Abstract. *This article analyzes the formation, development, and significance of the diplomatic relations that began to take an official form between the Bukhara Khanate and Russia in the second half of the 16th century, based on local and Russian sources. It particularly explores the 1558–1559 diplomatic mission led by English envoy Anthony Jenkinson to Bukhara, the reception of envoys from Bukhara and Khiva in Moscow in 1563–1564, the 1583 Bukhara embassy to Moscow, and other diplomatic interactions. The article draws on local historical works such as Abdullanoma (Sharafnamayi shohiy) by Hafiz Tanish al-Bukhari and the research of Russian scholars including S.V. Zhukovsky, St. Russov, and N. Veselovsky to examine the diplomatic missions, trade relations, and political interests of the time, and their role in the history of Central Asia–Russia relations. Jenkinson’s travel memoirs and his socio-economic observations are subjected to critical analysis. Additionally, the article discusses the position of Central Asian khanates in the international trade network and Russia’s political activities in the region.*

Keywords: *Bukhara Khanate, Russia, Anthony Jenkinson, diplomatic relations, trade relations, historical sources, 16th century, diplomacy.*

Mazkur maqola XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya oʻrtasidagi rasmiy tus ola boshlagan elchilik aloqalari tarixi mahalliy va rus manbalari asosida yoritib beriladi. Unda 1558-1559 yillarda Buxoroda boʻlgan Antoniy Jenkinson elchiligi, 1563-1564 yillarda Buxoro va Xivadan Moskvaga borgan elchilarni kutib olish, va 1583-yilda Buxorodan Moskvaga elchi boʻlib borib qaygan elchilik va boshqa aloqalar xususida maʼlumotlar beriladi. XVI yuz yillik mahalliy muallif, tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriyning Markaziy Osiyo va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid maʼlumotlarga boy boʻlgan “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari va S.V.Jukovskiy, St.Russov, N.Veselovskiy kabi bir qator rus mualliflarining asarlarida Buxoro xonligi bilan Rossiya oʻrtasidagi elchilik aloqalari tahlil qilinadi. Anthony Jenkinson ingliz sayyohi, savdo agenti va diplomat kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan. Yevropa, Osiyo va Afrikaga sayohat qilgan. Uning maqsadi Oʻrta Osiyo orqali Xitoy va Sharqiy Hindistonga olib boradigan savdo yoʻlini ochish boʻlgan, biroq u maqsadiga erisha olmagan. XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya oʻrtasidagi rasmiy tus ola boshlagan elchilik aloqalari tarixi mahalliy va rus manbalari asosida yoritib beriladi. Unda 1558-1559-yillarda Buxoroda boʻlgan Antoniy Jenkinson elchiligi, 1563-1564-yillarda Buxoro va Xivadan Moskvaga borgan elchilarni kutib olish, va 1583-yilda Buxorodan Moskvaga elchi boʻlib borib qaygan elchilik va boshqa aloqalar xususida maʼlumotlar beriladi.

XVI yuz yillikning mahalliy muallif, tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriyning Markaziy Osiyo va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid maʼlumotlarga boy boʻlgan “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari va S.V.Jukovskiy, St.Russov, N.Veselovskiy kabi bir qator rus mualliflarining asarlarida Buxoro xonligi bilan Rossiya oʻrtasidagi elchilik aloqalari tahlil qilinadi. Elchiligi 21 oy (1558-yil apreldan 1559-yil 2-sentabrgacha) davom etgan. Unda Richard va Robert Jonsonlar va Aziz ismli tarjimon (tatar) hamrohlik qilgan. Jenkinson bu elchilik sayohati haqida “Rossiyadagi Moskov shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahriga sayohat” nomli esdaliklarini yozib qoldirgan.

U Saroychiq, Xorazmdagi Vazir va Urganch shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan. Jenkinson Amudaryo, Mang'it ulusi, Xorazm va Buxoro xonligining XVI yuz yillik o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining turmushi, odatlari va boyliklari haqida muhim tarixiy ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jenkinson Buxoroning javon savdo markazlaridan biri ekanligini o'z asarlarida takidlab o'tadi. U shahardagi xorijiy savdogarlar haqida ma'lumot berib o'tarkan hind savdogarlarini alohida ta'riflab o'tgan.

Jenkinsonning aytishicha, bu savdogarlar yomon kiyingan va bunga qaramay ko'p tovarlar olib kelganligi sababli, bu tovarlar 2-3 yil davomida sotilmay qolgan. Boshqa manbalar bu ma'lumotni rad etadi. Ularning fikricha, Jenkinson aytaylab chet ellik, ayniqsa hind savdogarlarining faoliyati va hindlarning savdosini kamsitgan. Buxoro bozorlarida junga bo'lgan talabning yetishmasligini yaxshi bilgan ingliz sayohatchisi O'rta Osiyo bozorlarida Britaniya manufakturalarida to'qilgan matolarga talab kamligini tushunib yetgan. Jenkinsonning yozishicha, hind savdogarlari Buxoroga salla uchun ishlatiladigan yupqa turli xil oq matolarni olib kelishgan. Jenkinsonning Buxoro savdosi haqidagi ma'lumotlarni to'liq haqiqat deb aytish qiyin. Chunki u O'rta Osiyoda ingliz manufakturasida to'qilgan jun gazlamalarini sota olmas edi, shuning uchun u hind savdogarlarining Buxoradagi faoliyati va rolini pasaytirishga harakatlar qilgan. U savdoda raqobatchi bo'lishi mumkin bo'lgan savdogarlarni bu savdodan chalg'itmoqchi bo'lishi mumkinki, XVI yuz yillik o'rtalarida Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasida barqaror sado aloqalar o'rnatilgan O'rta Osiyo xalqlari qadimdan qo'shni davlatlar bilan yaqin iqtisodiy-savdo munosabatlariga kirishgan.

Ayniqsa, asrlar osha mintaqaning Sharqni G'arb bilan bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li ustida qulay makonda joylashganligi, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'shni davlatlarda yetarlicha ehtiyojning mavjudligi, boshqa mamlakat aholisini bu hududga tortgan.

Xorij davlatlari bilan savdo aloqalaridan O'rta Osiyo xalqlari ham manfaatdor bo'lgan. Shuning uchun ular o'rtasida doimiy ravishda savdo karvonlari qatnab turgan. O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari o'rnatgan davlatlar soni keyinchalik oshib borgan. Xususan, O'rta Osiyo xonliklari Rossiyaning ham e'tiborini torta boshlagan. XVI yuz yillikdan O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi oqibatida har bir xonlik alohida Rossiya bilan munosabatlarga kirisha boshlagan. Bu munosabatlar dastlab an'anaviy tarzda boshlangan bo'lsa, XVI yuz yillikning ikkinchi yarmidan rasmiy tus ola boshlagan. Shuni ta'kidlash lozimki, bu aloqalardan har ikki mamlakat aholisi manfaatdor bo'lgan. O'rta Osiyo tovarlariga Rossiyada, rus tovarlariga O'rta Osiyoda ehtiyoj mavjud bo'lgan. Shuning uchun ular o'rtasidagi aloqalar asta-sekin jadallashib borgan. Bu aloqalar to'g'risida mahalliy mualliflarning va rus mualliflarining asarlarida yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Eslatib o'tish lozimki, ayrim manbalar ko'rib o'tilayotgan davrda yozilgan bo'lsa, rus mualliflarining asarlari nisbatan keyingi davrlarda nashr qilingan.

XIX yuz yillikda Rossiya sanoatining rivojlanishi, rus sanoatining O'rta Osiyoda yetishtirilgan mahsulotlarga ehtiyoji oqibatida rus sanoatchilari va davlat rahbarlarining xonliklarni yaqindan bilishga intilishi kuchayishi natijasida so'nggi asrlarda rus tadqiqotchilari asarlari ko'payib borgan.

XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari mahalliy va rus manbalarida o'zining aksini topgan.

O'rta Osiyoda XVI yuz yillik oxirlarida yaratilgan muhim tarixiy geografik asarlardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asaridir. Bu asar Buxoro xoni Abdullaxon II ning (1583-1598) tarixi bo'lganligidan "Abdullanoma" nomi bilan ham mashhurdir. Uni buxorolik shoir, tarixchi va o'lkashunos Hofiz Tanish Buxoriy 1584-1591 yillar oraliqida yozgan Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asari O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Asar daliliy ashyolarga boyligi, tarixiy voqea – hodisalarning atroflicha yoritilganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Hofiz Tanish Buxoriy asardagi ko'p voqealarning o'zi guvohi bo'lgan, ayrimlarini shohidi bo'lgan kishilardan eshitib yozganligi uchun ham bu asar juda qimmatli manba sanaladi Ko'rib o'tilayotgan davrdagi mazkur munosabatlar masalalari qator rus tadqiqotlarida ham o'zining aksini topgan. Masalan, Ya.V.Xanikov o'zining Orol dengizi xaritasiga bag'ishlangan asarida O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya davlati o'rtasida Amudaryo qirg'oqlari orqali o'tgan aloqalar VIII yuz yillikdan ma'lum bo'lib, bu ma'lumotlar haqida Rossiyadan topilgan tangalar guvohlik beradi, deb yozgan. Russov o'zining "1753-yilda Orenburgdan Xivaga samaralik savdogar Rukavkinning sayohati" kitobida

XIV yuz yillik o'rtalarida Nijniy Novgorod ostonalarida ko'plab buxorolik va xivaliklar kelganligini qayd etgan. S.V.Jukovskiy o'zining "Uchyuz yil davomida Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan aloqalari" nomli asarida o'zidan oldin Buxoro va Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari masalasidagi elchiliklar to'g'risida ma'lumot bergan, ayniqsa Oltin O'rdaning qulashi, Ruslar tomonidan 1552-yil Qozonni, 1554-yilda Astraxanni bosib olinishi natijasida juda ko'plab buxorolik va xivalik hukmdorlar Moskvaga savdo aloqalarini jonlantirish masalalarida o'zlarining elchilarini jo'nata boshlaganligi, Moskva hukmdorlari esa ularga e'tiborli bo'lganliklari, XVI-XIX yuz yilliklar davomida O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasida davom etgan elchilik va savdo-iqtisodiy aloqalarni e'tirof qilgan. Bu asar O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya aloqalarini ko'proq xronologik tartibdagi ma'lumotnomalaridan iborat bo'lgan..V.Bartold 1911-yilda Sankt-Peterburgda nashr qilgan "Evropa va Rossiyada Sharqning o'rganilish tarixi" asarida Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilishida Rossiya ham emas, xonliklar ham emas, Jenkinson tashabbus ko'rsatgan, degan fikrni ilgari surgan. German, Zavyalov, N.I.Veselovskiy, V.Ulyaniskiy asarlarida O'rta Osiyo xonliklari tarixi bilan bog'liq ma'lumotlari orasida XVI asrning ikkinchi yarmida, xususan Antoniy Jenkinsonning Buxoroga kelishi va Moskvaga qaytib ketishi bilan bog'liq jarayonlar tahliliga alohida to'xtalib o'tishgan.

Muxtasar qilib aytganda, maqolada XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar va savdo munosabatlari o'rganildi. Bu davrda Buxoro va Rossiya o'rtasidagi aloqalar rasmiy tus ola boshlagan, va bu jarayon bir qator muhim diplomatik missiyalar orqali amalga oshirilgan. Antoniy Jenkinsonning 1558–1559 yillardagi Buxoroga bo'lgan sayohati, 1563–1564 yillardagi elchilarning Moskvada qabul qilinishi va 1583-yilda Buxorodan yuborilgan elchilik missiyasi bu aloqalar tarixidagi muhim voqealar sifatida ko'riladi. Jenkinsonning sayohatlari va uning asarlarida keltirilgan ma'lumotlar, o'z navbatida, O'rta Osiyo xalqlari, ularning turmushi, savdo aloqalari va siyosiy-iqtisodiy vaziyati haqidagi qimmatli tarixiy manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, Hofiz Tanish al-Buxoriyning "*Abdullanoma*" asari O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida muhim dalillarni o'z ichiga oladi. Bu asar, shuningdek, Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda ham o'zining ahamiyatini saqlab qoladi. Jenkinsonning savdo faoliyati, uning Buxoro bozoridagi xalqaro savdogarlar, xususan, hind savdogarlari bilan bog'liq kuzatuvlari, albatta, tarixiy tafakkurni o'zgartirishga yordam beradi.

XVI yuz yillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida rivojlangan diplomatik aloqalar ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va siyosiy manfaatlar asosida shakllangan. Rossiyaning O'rta Osiyoga bo'lgan qiziqishi, o'z navbatida, sanoat rivojlanishi va yangi savdo yo'llarini izlashga qaratilgan. Bu aloqalar nafaqat diplomatik o'zaro aloqalar, balki madaniy, savdo va iqtisodiy sohalarida ham muhim o'zgarishlarga olib kelgan.

Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar, ayniqsa, o'sha davrda ikki mamlakat o'rtasida o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu munosabatlarning tarixiy yodgorliklarini o'rganish, nafaqat tarixiy bilimlarimizni kengaytiradi, balki o'sha davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhitini ham yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birga, Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi va ularning zamonaviy tasvirlaridagi aks etishi, o'zaro ta'sirlarning ko'plab janrda o'rganilishi lozim bo'lgan muhim ilmiy masalalardir. Ushbu aloqalar, albatta, o'rta asrlarda shakllanib, keyingi asrlar davomida rivojlanib borgan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning mustahkam poydevorini tashkil etgan.

REFERENCES

1. А.Р. Мухаммаджонов. Бухоро ва Россия муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50 йиллари). Т.: - 1957. 224 б.
2. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. - Т.: Фан, 1991.
3. Ҳайдарбек Назирбекович Бобобеков. Қўқон тарихи. Тошкент: «фан» 1996. 240 б.
4. Аъзамхужаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.
5. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Т.: 2003. 376 б.
6. Зиёев Х. Сибирь, Волга ва Уралбуйларидаги узбеклар. - Т.: Шарк, 2003.
7. Гуломов Х.Г. Дипломатическая отношения государство Средней Азии с России в XVIII - первое половине XIX века. - Т.: Фан, 2005.
8. Гуломов Х-Г. Урта Осиё ва Россия (XVIII аср бошида давлатлараро муносабатларнинг шаклланиши). - Т.: Университет, 2007.
9. Ахмеджанов Г.А. Россия и Центральная Азия взаимосвязь исторической защиты. - М., - Т.: 2008.